

## Ibratli, ijodkor insonlar bilan

Institutimizda “Ibratli ijodkor insonlar” ruknida iqtidorli shoira, “PARKENTSUVQURILISH” MChJ matbuot kotibi Malika Salimova bilan “She’riyat – ma’rifatga madadkor” deb nomlangan mavzusida ijodiy muloqot va “Mehr istab”, “Uchinchi dunyo” kitoblarining taqdimoti bo’lib o’tdi. Tadbirda Institut matbuot kotibi, ustoz Rahimboy Jumaniyozov moderatorlik qildi.

Hozirgi kunda dolzarb bo’lib turgan Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ko’tarilgan beshta muhim tashabbusning birinchi va to’rtinchi bo’limlari bilan chambarchas holatda bo’lgan ushbu tadbirda “PARKENTSUVQURILISH” MChJ markaziy apparati rahbari Ollomurod Isaqulov, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi Sergeli tumani bo’limi rahbari, iqtidorli ijodkor Bobomurod Nur hamda institutning “GM” fakulteti dekani Alisher Fathullaevlar ishtirok etishdi. Tadbir jarayonida shoira tomonidan o’qilgan vatan, ona, sevgi-muhabbat mavzuidagi she’rlar institut talabalari tomonidan judayam qizg’in kutib olindi.

Shuningdek, tadbirda ishtirok etgan taniqli ijodkor Bobomurod Nur ham o’z ijodiy asarlarini talabalari e’tiboriga havola etdi. Uning ayniqsa, talabalik hayoti bilan bog’liq “Armon muhabbat” nomli she’ri talabalar tomonidan gulduros qarsaklar bilan qarshi olindi. Tadbir so’ngida ijodkorlar va talabalar o’rtasida qizg’in savol-javoblar bo’lib o’tdi. Ushbu jarayonda “GM” fakulteti talabalari judayam faoliy ko’rsatishdi. Mohir, topqir talabalar ijodkorlar tomonidan mualliflik kitoblari bilan taqdirlandi. Ushbu ijodiy kecha qatnashchilar qalbida manguga muhrlandi.



**“GIM” fakulteti “Gumanitar fanlar” kafedrasi assistenti Bahriiddin Muqimov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**